

2023-yilning 1-yarim yilligi davomida X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi va uning hududiy bo‘limlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati yuzasidan

T A H L I L I Y M A ’ L U M O T

Markaz va uning hududiy bo‘limlarida jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasiiga kelib tushayotgan murojaatlarni va bevosita kelib tushgan murojaatlarni qayd etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, ularni ko‘rib chiqish ustidan monitoring va nazorat qilish bo‘yicha elektron axborot tizimini joriy etish hamda yuritish orqali murojaatlar bilan ishlashda “**av.ijro.uz**” elektron dasturidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.

Markazga kelib tushgan murojaatlarning statistik hisobi yuritilib, har chorakda murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish ishlari amalga oshirilgan.

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markaziga **2023-yilning 1-yarim yilligi** davomida (*keyingi o‘rinlarda – hisobot davrida deb yuritiladi*) jami **370 ta** murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, kelib tushgan murojaatlardan **301 tasi** ariza, **63 tasi** shikoyatlarni, **6 tasi** takliflarni tashkil etadi.

2023 yilning 1-choragi davomida kelib tushgan murojaatlarning hududlar kesimida tahlili quyidagicha:

Hudud nomi	Toshkent shahri	Toshkent viloyati	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Navoiy viloyati	Samarqand viloyati	Jizzax viloyati	Sirdaryo viloyati	Namangan viloyati	Farg‘ona viloyati	Qashqadaryo viloyati	Surxonadaryo viloyati	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xorazm viloyati
Jami soni	110	35	20	14	15	28	7	11	10	19	53	24	5	19

2022-yilning xos davri bilan solishtirilganda, murojaatlar soni 17 taga ko‘paygan, xususan shikoyatlar 3 taga, arizalar 8 taga ko‘paygan.

Shundan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali jami **70 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha						
Jami murojaatlar soni (2+3+4+5+6+7)	Shundan					
	Qanoat-lantirilgan	Tushun-tirish berilgan	Ko‘rmas-dan qoldirilgan	Rad etilgan	Tegishligi bo‘yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan	O‘rganish jarayonida
1	2	3	4	5	6	7
70	2	67	0	0	0	1

Markazga kelib tushgan shikoyatlar xususiyatiga ko‘ra, **44 tasi** ekspertiza o‘tkazish yuzasidan, xususan davlat sud ekspertlari tomonidan berilgan xulosa va

mutaxassis fikrlari natijasidan norozi bo‘lib, **16 tasi** xodimlarning xatti-harakatidan norozi bo‘lib, **3 tasi** boshqa masalalarda yo‘llanganligi aniqlandi.

Shikoyatlar ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra 62 tasi hal etilgan bo‘lib, shundan **2 tasi** qanoatlantirilgan, **60 tasiga** huquqiy tushuntirish berilgan. Shuningdek, 1 ta shikoyat o‘rganish jarayonida bo‘lib, 2023-yilning 3-choragiga qoldiq bo‘lib o‘tgan.

Bevosita Markaz va uning hududiy bo‘limlariga kelib tushgan shikoyatlar bo‘yicha						
Jami murojaatlar soni (2+3+4+5+6+7)	Shundan					
	Qanoat-lantirilgan	Tushun-tirish berilgan	Ko‘rmas-dan qoldi-rilgan	Rad etilgan	Tegishligi bo‘yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan	O‘rganish jarayonida
I	2	3	4	5	6	7
63	2	60	0	0	0	1

Markaz va uning hududiy bo‘limlariga kelib tushgan har bir murojaatni av.ijro.uz elektron hujjat almashinuv dasturiga kiritish, murojaatni to‘liq o‘rganish hamda ularga qonunda belgilangan muddatlarda javob berish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, murojaatlar bilan ishlash tizimini yanada samarali tashkil etish chora tadbirlari ko‘rib borilmoqda.

Jumladan, Markaz direktori tomonidan 2023-yilning 29-mart kuni “Adliya vaziri tomonidan 2023-yil 25-martda tasdiqlangan ”Adliya organlari va muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha“ chora-tadbirlar rejasida Markazga yuklatilgan topshiriqlarning ijrosi yuzasidan nazorat rejasi” tasdiqlanib, tegishli tartibda ijroga qaratilgan.

Shuningdek, Markaz direktori tomonidan 2023-yil 31-mart kuni “X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi rahbariyati tomonidan 2023-yilning 4-choragi mobaynida hududlarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini sayyor qabul qilish jadvali” tasdiqlandi.

Shikoyatlarning aksariyati ekspertiza xulosalaridan noroziligi va qayta ekspertiza o‘tkazish masalasida ekanligi inobatga olinib, Markazda “Sud ekspertizalari va mutaxassislik fikrlarini taqrizdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Namunaviy Nizom loyihasi ishlab chiqildi va Markazning Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institut Idoralararo ilmiy-uslubiy kengashining 2023-yil 19-apreldagi 2/23-son majlisida barcha davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida joriy etish uchun tavsiya etildi.

Shu bilan birga, Nizom Markaz Ilmiy Kengashining 2023-yil 24-maydagи yig‘ilishida ekspertlar tomonidan bildirilgan takliflar inobatga olingen holda Markaz faoliyatida qabul qilish uchun tavsiya etildi.

Markaz Ilmiy kengash yig‘ilishlarida va rahbariyat huzuridagi tezkor yig‘ilishlarda murojaatlarni ko‘rib chiqishda aniqlangan xato va kamchiliklar doimiy ravishda muhokama qilinib, kamchiliklarni bartaraf etish, murojaatlarni ko‘rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar berib kelinmoqda.

Biroq, yig‘ilishlarida muhokama qilinib, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashda Qonun talablariga to‘liq rioya etish lozimligi haqida bir

necha bor ta'kidlangan hamda tegishli Ko'rsatmalar berilgan bo'lishiga qaramasdan, ayrim bo'lim va laboratoriylar tomonidan murojaatlар bilan ishlash borasidagi faoliyati yetarli darajada emasligi hamda ushbu sohada xodimlarning bilim va malakasini oshirishi lozimligi ko'rinishib qolmoqda.

Xususan, shikoyatlar bo'lim va laboratoriya kesimida tahlil qilinganda murojaatlarning **16 tasi** Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi, **16 tasi** Sud-qurilish-texnik ekspertizasi bo'limi, **4 tasi** Sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi, **3 tasi** Tovarshunoslik ekspertizasi bo'limi, **4 tasi** Odam DNksi va sud biologik ekspertizasi laboratoriyasi, **1 tasi** Sud-iqtisodiy ekspertizasi bo'limi, **2 tasi** Sud-fonografiya ekspertizasi laboratoriyasi, **1 tasi** Yong'in texnikaviy ekspertizasi laboratoriyasi, **6 tasi** Qashqadaryo viloyati bo'limi, **2 tasi** Samarqand viloyati bo'limi, **2 tasi** Namangan viloyati bo'limi, **1 tasi** Surxondaryo viloyati bo'limi, **2 tasi** Xorazm viloyati bo'limi, **3 tasi** boshqa tarkibiy bo'linma faoliyati yo'nalishiga oid ekanligi aniqlandi.